

**X. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR
FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI**
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)


Korxona va tashkilotlar yagona davlat registri ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar soni 119,4 mingtani tashkil qilib, shundan 114,8 mingtasi yoki 96,2 % faoliyat ko‘rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (ro‘yxatga olinganlarning umumiyligi sonidan 30,4 %), sanoat (14,4 %), qurilish (8,2 %) hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (6,5 %) sohalariga to‘g‘ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan hamda faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar taqsimoti (2022-yil 1- oktabr holatiga ko‘ra)

	<i>Ro‘yxatga olanganlar</i>		<i>Faoliyat ko‘rsatayotganlar</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>
Jami	119425	100,0	114837	100,0
shu jumladan:				
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari	1084	0,9	1034	0,9
Sanoat	17153	14,4	16539	14,4
Qurilish	9793	8,2	9453	8,2
Savdo	36359	30,4	35010	30,5
Tashish va saqlash	4676	3,9	4541	4,0
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	7741	6,5	7343	6,4
Axborot va aloqa	5254	4,4	5062	4,4
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	2242	1,9	2172	1,9
Boshqa turdagи xizmatlar ko‘rsatish	35123	29,4	33683	29,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, foizda (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)



Toshkent shahrida ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning eng ko'p miqdori 30,5 % savdo sohasida, 14,4 % sanoat sohasida, 8,2 % qurilish sohasida, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,4 % axborot va aloqa, 4,0 % tashish va saqlash, 1,9 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 0,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida va 29,3 % boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxona va tashkilotlarning soni 104,7 mingta bo'lib, shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 87,8 mingta, xususiy korxona – 12,0 mingta, oilaviy korxona – 3,7 mingta, unitar korxona – 0,4 mingta, aksiyadorlik jamiyatlar – 0,2 mingta va 0,3 mingta boshqa tijorat korxonalarini tashkil etadi.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat
ko'rsatayotgan tijorat yuridik shaxslarning taqsimoti, birlikda**



2022-yil yanvar–sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni 11,8 mingtani tashkil etgan bo'lib, shundan kichik biznes sub'ektlari 11,2 mingtani tashkil qiladi.


Jami yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Chilonzor (1452 ta), Yunusobod (1425 ta), Mirzo Ulug'bek (1386 ta), Olmazor (1084 ta), Shayxontohur (1104 ta), Yashnobod (1104 ta), Yakkasaroy (1005 ta), Mirobod (967 ta) va Uchtepa (916 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keldi. Aksincha, Sergeli (672 ta), Yangihayot (406 ta) hamda Bektemir (296 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlar tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Korxona va tashkilotlar soni
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)


(birlikda)

	2022- yil 1-oktabr holatiga ko'ra ro'yxatga olinganlar	2022- yil yanvar-sentabr oylarida	
		<i>yangi tashkil topganlar</i>	<i>tugatilganlar</i>
Toshkent shahar	119425	11817	2230
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	10432	916	211
Bektemir	2922	296	58
Yunusobod	14960	1425	261
Mirzo-Ulug'bek	13645	1386	254
Mirobod	9917	967	211
Shayxontohur	11594	1104	192
Olmazor	11925	1084	228
Sergeli	6113	672	132
Yakkasaroy	10230	1005	177
Yashnabod	9868	1104	173
Yangihayot	2669	406	46
Chilonzor	15150	1452	287

**2022 -yil 1-oktabr holatiga ro‘yxatdan o‘tgan korxona
va tashkilotlar soni**
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) birlikda



**2022-yil yanvar–sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)




Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2022-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarning soni 103,1 mingtani tashkil etgan (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz).


Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi 13135 birlik Chilonzor, 12635 birlik Yunusobod, 11669 birlik Mirzo Ulug‘bek, 10622 birlik Olmazor, 9718 birlik Shayxontohur, 9333 birlik Uchtepa hamda 9051 birlik Yakkasaroy tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Faoliyat ko‘rsatayotganlarning eng kam qismi esa 8426 birlik Yashnobod, 8270 birlik Mirobod, 5385 birlik Sergeli, 2628 birlik Bektemir hamda 2322 birlik Yangihayot tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

2022-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar kesimida ulushi (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan jami 103194 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 34647 birligi (33,6 %) – savdoda, 16325 birligi (15,8 %) – sanoatda, 9335 birligi (9,0 %) – qurilishda, 7294 birligi (7,1 %) – yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 4916 birligi (4,8 %) – axborot va aloqa sohasida, 4452 birligi (4,3 %) – tashish va saqlashda, 1885 birligi (1,8 %) – sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 1023 birligi (1,0 %) – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari, shuningdek 23317 birligi (22,5 %) – boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan
kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, foizda
2022-yil 1-oktabr holatiga**




Shundan ko'rilib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari turlariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


2022-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra xorijiy kapital ishtirokidagi ro‘yxatga olingan korxona soni 9197 birlikni tashkil etdi. O‘tgan yilga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning soni 1097 taga yoki 11,9 % ga o‘sgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonadan 3195 tasi qo‘shma korxona, 5729 tasi esa xorijiy korxona hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning o‘sish dinamikasi, *birlikda*




■ Yangi tashkil etilgan ■ Faoliyat ko‘rsatayotgan ■ Ro‘yxatdan o‘tgan

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni, *birlikda* 2022-yil 1-oktabr holatiga



Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonaning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turiga to‘g‘ri keladi, eng kam ulush esa sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish hamda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari faoliyat turlariga to‘g‘ri kelmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil topgan korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, *birlikda* 2022- yil yanvar–sentabr oylarida




2022-yilning yanvar–sentabr oylarining yakuni bo‘yicha xorijiy kapital ishtirokidagi 1311 ta korxona yangi tashkil qilindi. Bunda, Rossiya federatsiyasi rezidentlarining kapitali ishtirokidagi korxona soni – 429 tani, Turkiya Respublikasi – 145 tani, Qozog‘iston Respublikasi – 116 tani, Xitoy Xalq Respublikasi – 100 tani hamda 521 tani boshqa davlatlar tashkil qildi. Shuningdek, 2022 yilda Afg‘oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari hamkorlik qilishga qiziqish bildirdilar.

Oilaviy korxonalar soni


2022-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 3951 birlikni tashkil etdi, ulardan 3751 birlik yoki 94,9 % faoliyat yuritmoqda.

Oilaviy korxonalar soni, *birlikda*



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning soni ko'rildiganda oilaviy korxonalarning 33,9 % yoki 1271 tasi sanoat, 26,3 % yoki 987 tasi savdo, 18,6 % yoki 698 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 2,2 % yoki 81 tasi qishloq o'rmon va baliq xo'jaliklari, 1,4 % yoki 52 tasi axborot va aloqa, 1,3 % yoki 47 tasi qurilish, 1,7 % yoki 62 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % yoki 39 tasi tashish va saqlash hamda 13,6 % yoki 514 tasi boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelmoqda.

2022-yil 1- oktabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning ulushi, foizda



2022-yil 1-oktabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning sonini ko'rildiganda eng katta soni sanoat va savdoda, eng kichik soni esa qurilish, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlash hamda tashish va saqlash xizmatlari sohasiga to'g'ri keladi.

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnomalar usidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016– yil 24– avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 275– son qarorining 1– ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.